



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarini faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**SANATORIYA-KURORT SOHASIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI
TRANSFORMATSİYALASHNING AYRIM MASALALARI**

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ОТНОШЕНИЙ СОБСТВЕННОСТИ В
СЕКТОРЕ САНАТОРИЕВ-КУРОРТОВ**

**SOME ISSUES OF TRANSFORMATION OF OWNERSHIP RELATIONS IN THE
SANATORIUM-RESORT SECTOR**

Israilova Maksuda Valeriyevna

Farg‘ona davlat universiteti “Jahon va mintaqa iqtisodiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada sanatoriy-kurort sohasini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan sohada mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Hozirgi bosqichda barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq sog‘lomlashtirish turizmi sohasi faoliyati mulkdorlarning iqtisodiy manfaatları, davlatning ijtimoiy maqsadları va ekologik maqsadlar muvozanatini ta‘minlashi lozim. Bundan tashqari, tarmoqda mulkchilik shakllarining xilma-xilligi butun tarmoq faoliyatini yagona strategik yo‘nalishda muvofiqlashtiruvchi, sanatoriy va kurortlar faoliyati uchun qulay bozor muhitini yaratuvchi yangi boshqaruv tizimiga o‘tishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: mulkchilik munosabatları, mulkchilik shakllari, sanatoriy-kurort sohasi, barqaror rivojlanish.

В статье рассматриваются вопросы изменения отношений собственности в сфере, что является одним из основных направлений реформирования санаторно-курортной сферы. На современном этапе, в соответствии с концепцией устойчивого развития, деятельность сферы оздоровительного туризма должна обеспечивать баланс экономических интересов собственников, социальных целей государства и экологических целей. Кроме того, многообразие форм собственности в отрасли обуславливает необходимость перехода к новой системе управления, координирующей деятельность всей отрасли в едином стратегическом направлении, создающей благоприятную рыночную среду для деятельности санаториев и курортов.

Ключевые слова: отношения собственности, формы собственности, санаторно-курортная сфера, устойчивое развитие.

This article examines changes in property relations in the industry, which is one of the key areas of reform in the health resort industry. Currently, in accordance with the concept of sustainable development, health tourism activities must balance the economic interests of owners, the state's social goals, and environmental objectives. Furthermore, the diversity of ownership structures within the industry necessitates a transition to a new management system that coordinates the entire industry's activities within a single strategic direction and creates a favorable market environment for health resorts and resorts.

Keywords: property relations, ownership structures, health resort industry, sustainable development.

Mulkchilik instituti har qanday davlatning iqtisodiy munosabatları tizimida fundamental ahamiyatga ega. Mulkchilik munosabatları mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni tartibga soluvchi iqtisodiy va huquqiy me‘yorlar asosida shakllanadi hamda ko‘p jihatdan mamlakatda moddiy va nomoddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish xarakterini oldindan belgilab beradi. Iqtisodiyotning o‘tish davridagi institutsional o‘zgarishlar sharoitida mulkchilik

institutining transformatsiyasi ro‘y berib, u iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, sanatoriy-kurort sohasida mulkchilik shakllari, aktivlarni boshqarish va iqtisodiy resurslarni taqsimlash mexanizmlarining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi sanatoriy va kurortlar sohasida turli mulk shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishini taqozo etdi. Sog‘lomlashtirish turizmi sektorining yangi tuzilmasini shakllantirishga ham iqtisodiy, ham institutsional omillar ta‘sir ko‘rsatdi [3]. Ular orasida quyidagilar eng muhim hisoblanadi:

- sanatoriy-kurort sohasiga jamoatchilikning tarixan shakllangan iste‘molchilik munosabati,
- mustaqillikning ilk yillarida davlatning sanatoriy-kurort sohasidagi siyosati amalda yo‘lga qo‘yilmagani va turg‘unlik holatida bo‘lgani;
- shifobaxsh tabiiy resurslarning respublika hududida notekis taqsimlangani;
- sanatoriy-kurort tarmog‘i obyektlarining asosiy qismiga kasaba uyushmalari va yirik sanoat korxonalarining tarixan shakllangan mulk huquqi saqlanib qolgani;
- tijorat korxonalari, xususiy va xorijiy investorlarning sanatoriy-kurort sohasiga biznes yo‘nalishi sifatida qiziqish bildirayotgani.


Sanatoriy-kurort sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning mulkchilik shakllari tarkibini tahlil qilinganda, shuni ta‘kidlash joizki, u O‘zbekistonda tarixan butun jahon sog‘liqni saqlash va sog‘lomlashtirish turizmi amaliyotida noyob hodisa bo‘lgan Sovet Ittifoqining "poliklinika-statsionar-sanatoriy" yagona sog‘liqni saqlash tizimining elementi sifatida shakllangan. Biroq, sohani tashkil etishning ushbu xususiyatiga qaramay, idoraviy va sil kasalliklaridan tashqari barcha sog‘lomlashtirish muassasalari Kasaba uyushmalari markaziy kengashi huzuridagi Sanatoriy-kurort bosh boshqarmasi tasarrufida bo‘lgan va umumxalq boyligi hisoblangan. Sanatoriy-kurort sohasida xususiy mulkchilik bo‘lmagan. Sanatoriy-kurortlar davolash-profilaktika muassasalari sifatida faoliyat ko‘rsatib, aholini sog‘lomlashtirishda muhim o‘rin tutgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan paytda mamlakatda rivojlangan sanatoriy-kurort xo‘jaligi tizimi mavjud edi. Statistik ma‘lumotnomalarga ko‘ra, 1989-yilga kelib O‘zbekistonda 89 ta sanatoriy, 18 ta dam olish uyi va 158 ta sanatoriy-profilaktoriylar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardagi o‘rinlar umumiy soni 54,5 mingtani tashkil etgan. 1989-yilda respublika sanatoriylarida 434 ming kishi dam oldi, ularga ko‘rsatilgan sanatoriy-kurort xizmatlari qiymati 42 million so‘mni yoki aholi jon boshiga 2,1 so‘mni tashkil etdi. [1] Biroq sovet davrining so‘nggi yillarida ushbu tizim iqtisodiy turg‘unlik ta‘siriga uchradi: markazlashgan moliyalashtirish mablag‘lari hajmi qisqardi, eskirgan uskunalar deyarli yangilanmadi, xizmat ko‘rsatish darajasi esa zamonaviy talablarga javob bermay qo‘ydi. Ayni paytda, idoraviy tashkilotlar va yirik korxonalar tasarrufidagi sanatoriy-profilaktoriylar, nisbatan yaxshiroq ahvolda edi.

Statistik ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikning dastlabki yillarida (1991–1999-yillar) sanatoriy-kurort sohasining rivojlanishi turg‘unlik holatida bo‘lgan. Bu davrda sohaning davlat va idoraviy tashkilotlar tomonidan yetarlicha moliyalashtirilmagan, bu esa moddiy-texnika bazasining holatiga hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida sanatoriy-kurort tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy bazaning shakllanmaganligi jiddiy cheklovchi omil bo‘ldi. Mamlakatda bu davrda mulkchilik shakllarini transformatsiya jarayonlari boshlangan bo‘lsa-da, dastlabki bosqichda ular sanatoriy-kurort muassasalari faoliyatiga deyarli ta‘sir ko‘rsatmadi. Bu xususiylashtirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq edi. Ular dastlab uy-joy fondini, maishiy xizmat ko‘rsatish va savdo korxonalarini qamrab olib, faqat keyingi yirik korxonalariga tarqaldi.

Sohadagi jiddiy o‘zgarishlar 2000-yildan boshlanib, ular qonunchilikdagi o‘zgarishlar, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari, idoraviy boshqaruv tizimining isloh qilinishi, shuningdek, yirik sanoat korxonalariga qarashli ijtimoiy infratuzilma obyektlarining tugatilishi, davlat mulkiga o‘tkazilishi yoki sotilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu davrda yirik ishlab chiqarish korxonalariga qarashli sanatoriy-profilaktoriylar soni keskin kamayib, 1989-yildagi 179 tadan 2012-yilga kelib 51 taga tushib qoldi (1-rasm). Aksincha, sanatoriy va pansionatlar soni 1999-yildagi 79 tadan 2012-yilda 94 taga yetdi. Shuni ta‘kidlash joizki, sanatoriylar soni ortganiga qaramay, bu davrda ulardagi o‘rinlar miqdori deyarli o‘zgarmagan, bu esa bozorda mikrofirmalar va kichik korxonalar paydo bo‘lganidan


dalolat beradi. Bu tendensiya bozor rivojlanishining butun davri davomida saqlanib kelmoqda: agar sovet davrida sanatoriylardagi o‘rtacha o‘rinlar soni 250-300 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 108 tani tashkil etdi. Bu davrda "Oltinsoy" (2009), "Xonqa" (2002), "Termiz marvaridi" (2015), "Havotog‘ gulshani" (2015) kabi yirik sanatoriylar qayta qurildi va barpo etildi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida sanatoriyy-kurort tashkilotlari soni dinamikasi [2]

Sohaning eng yuqori o‘shish sur‘ati 2020-yildan keyin, sanatoriyy-kurort xizmatlari bozorida birinchi yirik sanatoriylar va SPA-kurortlar paydo bo‘lganidan so‘ng kuzatildi. Sanatoriylar sonining o‘shishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrda PF-5273-son "Chorvoq" erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-mayda 365-son "Chorvoq" erkin turistik zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ko‘rinishidagi davlat tomonidan tartibga solish choralari ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. 2020-2023-yillar davomida Toshkent viloyatining Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsion zonasi hududida "Sevarsoy" (2022), "Tibet mounts flora" (2020), "Fanat Resort" (2021), "Oqtosh shabada" (2020) sanatoriyy-kurortlari ochildi. Faqatgina 2021-yilda sanatoriylar soni 23 foizga oshgan bo‘lsa, 2023-yilda o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 131 foizni tashkil etdi. Bu davrda O‘zbekistonning boshqa hududlarida Surxondaryo viloyatida "Sangardak" (2021) va Xo‘jaipok (2020), Toshkent shahrida "Chinobod Plaza" (2021) kabi yirik sanatoriyy va SPA-kurortlar ishga tushirildi. Respublikaning barcha viloyatlarida bu davrda yangi sanatoriylar ochildi. Masalan, faqat Farg‘ona viloyatining Farg‘ona tumanida "Chimyon chashmasi" (2020-yil), "Koinot kavsari" (2020-yil), "Shifobaxsh Chimyon" (2019-yil), "Chimyon shifo sihatgohi" (2017-yil) sanatoriylari faoliyat boshladi.

So‘nggi yillarda sanatoriyy-kurort tashkilotlari sonining sezilarli o‘shishi mikrofirmalar va kichik korxonalar hisobiga amalga oshirilmoqda, yirik kurortlar va sanatoriylar soni esa sezilarli darajada o‘zgarmayapti. Agar 2018-yilda sohada yirik biznes va kichik biznesning ulushi 46 foizga 54 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 34,8 foizga 65,2 foizga teng bo‘ldi. 2023-yilda sanatoriyy-kurort tashkilotlarining umumiy soni 293 tani tashkil etib, ulardan 29 tasi O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari markaziy kengashi tizimiga, 13 tasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga, 9 tasi turli idoralarga qarashli va 242 tasi yoki 83 foizi yakka tartibdagi yoki jamoaviy mulk bo‘lgan xususiy korxonalaridir.



«2-rasm. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi sanatar-kurort tashkilotlarining mulkchilik va idoraviy tegishligi bo‘yicha tuzilmasi» [3]

Sanatoriy-kurort sohasida mulkchilikning turli shakllarining paydo bo‘lishi O‘zbekistonning o‘tish davri iqtisodiyoti sharoitida bozor o‘zgarishining qonuniy va ijobiy ko‘rinishidir. Mulchilik shakllarini diversifikatsiyasi investitsiyalarni jalb qilish, raqobatni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, sanatoriy-kurort faoliyati davlat, jamiyat, xususiy sarmoyadorlar, idoraviy va jamoat tashkilotlari manfaatlarini kesishadigan ijtimoiy va ekologik jihatdan ta’sirchan sohalar qatoriga kiradi. Ushbu manfaatlar muvozanati asosida mulchilik munosabatlari va tabiiy shifobaxsh resurslardan foydalanish va ularni asrab-avaylash bo‘yicha funksiyalarning taqsimlanishi turadi. Mazkur resurslarning ijtimoiy ahamiyati va tarmoq bajaradigan ijtimoiy vazifalarni inobatga olgan holda, to‘liq tijoratlashtirish va boshqaruvda davlat ishtirokini chetlashtirish institutsional jihatdan maqsadga muvofiq emas. Aynan shu sababli sanatoriy-kurort boyliklari tarkibida ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tabiatiga ko‘ra turli guruhlarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga sanatoriy-kurort faoliyatining asosi hisoblangan tabiiy davolovchi resurslar kiradi. Ular ijtimoiy va milliy boylik sifatida alohida maqomga ega bo‘lib, davlat muhofazasiga olinadi. Bu resurslardan foydalanish oqilona, ekologik xavfsiz va avlodlararo mas’uliyat tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim, bu esa barqaror rivojlanishning ekologik platformasiga mos keladi.

Ikkinchi guruhga sog‘lomashtirishning kafolatlangan ijtimoiy standartlarini ta’minlovchi sanatoriy-kurort xizmatlari kiradi. Bunday xizmatlar ijtimoiy ehtiyojlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, to‘lov qobiliyati cheklangan talab tufayli to‘liq tijorat asosida faoliyat yuritish olmaydi. Ularning rivojlanishi asosan davlat va jamoat mulchilik shakllari bilan bog‘liq bo‘lib, barqaror rivojlanishning ijtimoiy platformasini aks ettiradi.

Uchinchi guruhga kafolatlangan standartlardan yuqori darajada xizmat ko‘rsatuvchi va shaxsiy iste’molga yo‘naltirilgan sanatoriy-kurort tashkilotlari kiradi. Bu obyektlar tijorat jozibadorligiga ega, o‘zini o‘zi qoplash qobiliyatiga ega va ko‘pincha xususiy yoki aralash mulchilik shakllarida faoliyat yuritadi. Ular sohaning barqaror rivojlanishining iqtisodiy platformasini shakllantiradi.

To‘rtinchi guruh idoraviy va korporativ sog‘lomlashtirish muassasalarini o‘z ichiga oladi, ularning faoliyati bozor maqsadlaridan ko‘ra ko‘proq institutsional va ijtimoiy maqsadlar bilan belgilanadi.

Shunday qilib, sanatoriy-kurort sohasidagi mulkchilik tuzilmasi sanatoriy-kurort resurslarining ijtimoiy ahamiyati, tijorat samaradorligi va ekologik qiymati nisbati ta‘sirida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, sanatoriy-kurort sohasining rivojlanishi mulkchilik shakllarining xilma-xilligi sharoitida davlat, idoraviy va xususiy xo‘jalik yuritish shakllari o‘rtasida institutsional jihatdan qurilgan muvozanatni talab etadi. Tabiiy shifobaxsh resurslarning ijtimoiy ahamiyatini va aholini sog‘lomlashtirishning ijtimoiy funksiyasini hisobga olgan holda, sohani to‘liq tijoratlashtirish maqsadga muvofiq emas.

Sohani barqaror rivojlantirishni faollashtirishning maqbul usullari quyidagilardan iborat: yagona strategik yo‘nalishdagi faoliyatni davlat tomonidan muvofiqlashtirish va normativ-huquqiy tartibga solish, turizm bo‘yicha vakolatli organ tuzilmasida sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmani tashkil etish, mulkchilik shakllari va faoliyat yo‘nalishini hisobga olgan holda sanatoriy-kurort tashkilotlarining yagona milliy reyestrini shakllantirish va yuritish, shuningdek, sog‘lomlashtirish turizmining yagona milliy brendini yaratish. Bunda sog‘liqni saqlash tizimidagi sanatoriylar, ixtisoslashtirilgan (shu jumladan, sil kasalligiga qarshi) muassasalar, imtiyozli sog‘lomlashtirish tashkilotlari, idoraviy va kasaba uyushmalari sog‘lomlashtirish muassasalarini saqlab qolish sohaning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-335-son qarori
3. Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya/ Fargona 2021 y
4. Ignateva, T. A. Turizmning barqaror rivojlanishi: mazmuni va afzalliklari / T. A. Ignateva // Интеграция туризма в экономическую систему региона: перспективы и барьеры: Материали ИИ Международной научно-практической конференции, Орёл, 24-25 апреля 2020 года. - Орёл: И.С. Тургенев номидаги Орёл давлат университети, 2020. - S. 259-264.
5. K. X. Ilyasova, Ye. S. Aysxanova, A. E. Xasuyev Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi // Vestnik Akademii znaniy. 2020. No5 (40).
6. Leonov V.A., Bokacheva E.I., Vinokurov V.I. i dr. 1993. Analiz istochnikov proishozhdeniya imushhestva sanatorno-kurortnyh uchrezhdenij i razrabotka koncepcii povyshenija jeffektivnosti ego ispol'zovaniya. T. 1. Sochi, 51.
7. Karpova G.A., Dolmatenya Yu.V., Tkachev V.A. 2018. Rossiya iqtisodiyoti transformatsiyasi sharoitida sanatoriy-kurort kompleksini rivojlantirish muammosi. Servis v Rossii i za rubejom, t. 12, 1 (79): 52-59.